



BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIDA KORREKTSIYA VA KOMPENSATSIYANING AHAMIYATI

Maxsus pedagogika: Logopediya yo'nalishi
1-kurs talabasi Yakubova Umida O'tkirbek qizi
Ilmiy raxbar; Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233870>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning psixik rivojlanishida korrektsiya (tuzatish) va kompensatsiya (o'rnini qoplash) muhim o'rin tutishi haqida so'z boradi. Har bir bola o'ziga xos rivojlanish jarayoniga ega va ba'zan bu jarayon turli sabablar tufayli buzilishi yoki sekinlashishi mumkin. Ushbu paytda korrektsiya va kompetensiyaning o'rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqida ushbu maqolada so'z boradi.

Kalit so'zlar: korrektsiya, kompensatsiya, psixoterapiya, pedagogik faoliyat, muvozanatlash, integratsiyalash

2020-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ802-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari belgilab berildi. Mana shu jarayonda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga e'tiborini qaratish davr talabi sifatida dolzarbligini hech qachon yoqotmaydi. Chunki barkamol avlod tarbiyasi har qanday davlatning eng asosiy ustuvor vazifasi hisoblanadi. Shu sababdan davlatimizda bir qator bolalar uchun korrektsion va kompensatsion ishlar olib borilmoqda.

Korrektsiya va Kompensatsiya o'zi nima?

Korrektsiya so'zi lotincha "correctio" (tuzatish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, biror narsa yoki jarayondagi kamchiliklarni aniqlash va ularni to'g'rilash degan ma'noni anglatadi. Korrektsiya har qanday sohada mavjud kamchiliklarni yaxshilash yoki ularni bartaraf etish uchun qo'llaniladi. Masalan:

Nutq korrektsiyasi-nutqiy kamchiliklarni tuzatish

- Ko'rish yoki eshitish qobiliyatidagi muammolarni maxsus usullar yordamida tuzatish

- Xulq-atvor korrektsiyasi – ijtimoiy xatti harakatlarni moslashtirish

Kompensatsiya so'zi lotincha "compensation" (o'rnini qoplash) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yo'qotilgan yoki cheklangan qobiliyat, imkoniyatlarning boshqa vositalar yordamida qoplanishini aytiladi. Bu tushuncha defektologiyada bolaning rivojlanishida yuzaga kelgan psixologik cheklovlarini (masalan, eshitish, ko'rish yoki aqliy rivojlanishdagi kamchiliklarni) boshqa qobiliyatlar, jarayonlar yoki tashqi yordam orqali qoplanishini aytiladi.

- Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda kompensatsiya ko'rish va teginish hissiyotlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. (M: imo-ishora tili yoki maxsus audio visual vositalardan foydalanaish)

- Ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar esa eshitish va teginish orqali atrof-muhitini tushunishni o'rganadilar.

- Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarda kuchliroq rivojlangan xotira, ijodiy qobiliyat bilan yoki ijtimoiy moslashuv qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Ushbu jarayon turli metodlar orqali amalga oshiriladi m: o'yin terapiyasi, maxsus pedagogik mashg'ulotlar.

Kompensatsiya jarayonini maqsadi bola jismoniy yoki psixologik imkoniyatlari cheklangan bo'lsada jamiyatda muvoffaqiyatli moslashuvini va mustaqil hayot kechirishini ta'minlash.

Uning kuchliroq rivojlangan qobiliyatlari yordamida hayot sifatini yaxshilash.



Kompensatsiya defektalogiyada bolaning nuqsonlarini imkon qadar qoplab uni jamiyatga integratsiyalashuvini va hayotiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Korreksiya va kompensatsiya jarayonlari asosan birga qo'llaniladi, masalan: nutq buzilishlari bo'lgan bolalarda logopedic mashg'ulotlar bilan birga qo'shimcha metodlar ham qo'llaniladi.

Korreksiya va kompetensiyaning bolalarning ijtimoiy moslashuvi hamda shaxsiy o'sishiga qanday ta'sir qilishi muhim ahamiyatga ega. Har ikki usulning birlashishi, bolalarning jamiyatdagi moslashuvini, jumladan, psixologik holatini yaxshilashda samarali bo'ladi. Bolalarning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish uchun ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish kerak. Psixologik va pedagogik yondashuvlar bu jarayonni osonlashtiradi, bolalar ongli ravishda o'zlarini jamiyatdagi o'rnini qanday anglashni o'rganadilar. Albatta bu jarayonda ota-ona va mutaxassislarining o'rnini yuqori bo'lishi talab etiladi. Negaki, ota-onalar bolaning uyda qanday rivojlanayotganini tushunib, ularning ehtiyojlarini aniqlashlari lozim. Mutaxassislar esa bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish uchun zarur metodlarni qo'llaydilar buni ya'ni bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishda birinchi navbatda oilaning, ota-onaning hamda uni o'rab turgan muhitning o'rnini va ahamiyati katta ekanligini muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 29-dekabrda O'zbekiston respublikasi Oliy majlisiga va xalqiga qilgan murojaatnomasida yangi O'zbekistonda uchunchi Renessansni barpo etishda beshta xalqa ichida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini va oilani, beshta ustun ichida esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va ota-onalarning hamkorlikdagi muhim ma'suliyatli vazifalariga to'xtalib o'tganligidan ham bevosita bilishimiz mumkin. Shu bilan birga I.V.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, SH.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova, M.R.Isxakovalar ham bu mavzu yuzasidan "ILK QADAM" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini ishlab chiqishgan. Bu dasturda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining har biriga alohida ilmiy-uslubiy yondoshilgan.

Xulosa; Bolalarning psixologik rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlash uchun psixologik va pedagogik korreksiya va kompetensiyani o'rnini ahamiyatli. Psixologik og'ishlar bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini, ijtimoiy munosabatlarini va hayot sifati uchun salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun psixologik korreksiya va kompetensiya jarayonlarini amalga oshirish zarur. Bu jarayonlar bolalarga yangi imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zligini anglatish uchun yordam beradi. Ushbu kompleks yondashuvlar bolalarning hayot sifatini yaxshilaydi va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Y. Ayupova. Logopediya, O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati Toshkent, 2007
2. N.Z. Abidova Maxsus Psixologiya (Tiflopsixologiya), Barkamol fayz media, 2017
3. P.M. Pulatova va boshqalar. Maxsus pedagogika. T: Fan va texnologiyalari, 2014 y
4. Internet manbalari va dars majmualari